

DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INKLYUZIV TA'LIMNI TASHKIL QILISH

Esonova Malohat Akilovna

Qo'qon Davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim nazariyasi va metodikasi dotsenti

Jo'rayeva Shahlo Rashidxon qizi

Qo'qon Davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil qilish, uni rivojlantirish, inklyuziv ta'limning ahamiyati, dolzarbligi hamda bunday ta'limga qanday bolalarni jalb etilishi haqida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, ixtisoslashtirilgan Maktabgacha tashkilotlar, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, Ilk qadam, ko'p tarmoqli maktabgacha ta'lim tashkilotlari, qo'shma tipdagi maktabgacha ta'lim muassasalari.

Davlat o'quv dasturi har bir bolaning ta'lim-tarbiya, rivojlanish, himoya va faol ishtirok etishda teng foydalanish huquqlarini tan oladigan inklyuziv o'quv dasturi hisoblanadi. Jismoniy, aqliy, sensor(sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi.

Inklyuziv ta'lim- bolalarning alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda ta'lim va tarbiya olinishini teng ta'minlovchi jarayon. Davlat Maktabgacha Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolani ta'lim olishi va rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash - bu Davlat Maktabgacha Ta'lim tashkilotlarining direktori, pedagog va mutaxassislari tomonidan tashkil etiladigan jamoaviy ish.

Ixtisoslashtirilgan Maktabgacha tashkilotlar va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotlar o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasining „Ta'lim to'g'risida" gi Qonuniga va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, Ilk va Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga, ushbu Nizomga hamda o'z ustaviga amal qiladi.

Qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotlarning faoliyati jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar va rivojlanishida nuqsoni bo'lmagan bolalarning bir tashkilotda alohida guruhlarda birgalikda o'qishini va tarbiyalanishini tashkil etishga qaratilgan.

Ixtisoslashtirilgan Maktabgacha tashkilotlar va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotlar davlat tashkilotlari va nodavlat tashkilotlar bo'lishi mumkin.

Davlat ixtisoslashtirilgan Maktabgacha tashkiloti va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkiloti va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilot yuridik shaxslar hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi davlat tilida yozilgan muxrga hamda shtampga, mustaqil balansga, byudjet va byudjetdan tashqari shaxsiy g'azna hisob varaqlariga ega.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilot maqsadlari quyidagilardan iborat:

- bolaning ta'lim olish huquqini amalga oshirishni ta'minlash;
- bolalarni o'qitish va tarbiyalash, ularni jamiyatga moslashtirish, shuningdek, rivojlanishidagi nuqsonlarni tuzatish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

- bolalarning yosh va noyob imkoniyatlari, qobiliyatlari va ehtiyojlariga mos ravishda jismoniy, intellektual va ma'naviy rivojlanishini ta'minlash;
- bolaning shaxsiyatini shakllantirish, uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, uning ijtimoiy tajribasini ta'minlash.

Qo'shma tipdagi davlat maktabgacha tashkilotlarini tashkil etish uchun xurujlarning eng kam soni tegishli ravishda quyidagilarni tashkil etishi kerak:

- a) kamida 4ta inklyuziv guruh.
- b) quyidagi ixtisosliklaridan biri bo'yicha rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun kamida 4ta guruh:
 - eshitishida og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun;
 - ko'rishda og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun;
 - psixik rivojlanishi kechikkan bolalar uchun;
 - tayanch- harakat apparatida nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun.

Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan Davlat Maktabgacha Ta'lim tashkilotlarida rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun guruhlar tegishincha quyidagi miqdorda to'ldiriladi:

nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun guruhlarda — ko'pi bilan o'n ikki nafar bola;

kar bolalar uchun guruhlarda — ko'pi bilan o'n nafar bola;

yaxshi eshitmaydigan bolalar uchun guruhlarda — ko'pi bilan o'n ikki nafar bola;

ko'zi ojiz bolalar uchun guruhlarda — ko'pi bilan o'n nafar bola;

ko'zi yaxshi ko'rmaydigan bolalar uchun guruhlarda — ko'pi bilan o'n ikki nafar bola;

tayanch-harakat apparati buzilgan bolalar uchun guruhlarda — ko'pi bilan o'n sakkiz nafar bola;

gemiparez, monoparez, plegiya asoratlari bo'lgan bolalar uchun guruhlarda — ko'pi bilan o'n ikki nafar bola;

bolalar serebral falaji sindromi asoratlari bo'lgan bolalar uchun guruhlarda — ko'pi bilan o'n nafar bola;

yengil darajada aqli zaif bo'lgan aqliy nuqsonlari bor bolalar uchun guruhlarda — ko'pi bilan o'n ikki nafar bola, o'rtamiyona va o'rtacha darajada aqli zaif bo'lgan aqliy nuqsonlari bor bolalar uchun guruhlarda — ko'pi bilan o'n nafar bola;

autizmga chalingan uch yoshdan katta bolalar uchun guruhlarda — ko'pi bilan o'n nafar bola;

aqliy rivojlanishi kechikayotgan uch yoshdan katta bolalar uchun guruhlarda — ko'pi bilan o'n ikki nafar bola;

murakkab nuqsonlari (ikki va undan ortiq nuqsoni) bo'lgan bolalar uchun guruhlarda — ko'pi bilan o'n nafar bola.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotga va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotga quyidagi nuqsonlari bo'lgan bolalar qabul qilinmaydi:

- og'ir va chuqur darajadagi aqli zaiflik;
- shizofreniya, hissiy irodaning chuqur buzilishlari;
- tez-tez takrorlanadigan umumiy epileptik tutilishlar;
- tufayli turli xil psixopatiya va psixopatik holatlarning og'ir shakllari;
- asab tizimining organik buzilishi tufayli siydik va najasni ushlab turolmaslik;

- yurak-qon tomir, nafas olish va ovqat hazm qilish tizimlarini olib tashlash va dekompensatsiya qilish bosqichi.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti va qo'shma maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarning maktabgacha ta'limga qo'yiladigan belgilangan davlat talablariga muvofiq ta'lim, ta'lim, tarbiya va sog'lom bo'lishini ta'minlash ko'zda tutiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 802-sonli 22.12.2020-yildagi Maktabgacha Ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash terisida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Qarori - 595 34-moddasi 17-bet
3. Vazirlar mahkamasi Qarori 391-sonli 3-ilova ikkinchi, uchinchi boblar
4. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi Toshkent-2022
5. Anvarovna, Sultonova Nurxon. "MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA LOYIHALASHTIRISHNING AFZALLIKLARI (TRIZ TEXNOLOGIYALARI)." " *ONLINE-CONFERENCES* " PLATFORM. 2023.
6. Anvarovna, Sultonova Nurxon. "O'QUVCHILARDA XULQ-ATVOR SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHDA XALQ OG'ZAKI IJODI VOSITALARIDAN FOYDALANISH." *Role of Exact and Natural Sciences During the Renaissance III* (2023): 94-98.
7. Anvarovna, Sultonova Nurxon, and Xalkuziyeva Dilnoza Baxodirovna. "PROBLEMS OF WORKING WITH PARENTS OF CHILDREN NOT INVOLVED IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS." *International Journal of Early Childhood Special Education* 15.1
8. Anvarovna, Sultonova Nurkhon. "Some Aspects of the Maria Montessori Method in the Education of Preschool Children." *INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION* 1.6 (2022): 169-173. (2023).
9. Bakhodirovna, Halkuzieva Dilnoza. "Personality-Oriented Education in the Development of Creative Activities of Future Educators." *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769) 1.8 (2023): 432-435.
10. Султонова, Нурхон Анваровна. "Теоретические основы подготовки детей в современных условиях к социальной жизни в семье." *Scientific progress* 1.6 (2021): 631-635.
11. Султонова, Нурхон. "ОРГАНИЗАЦИЯ ИГРОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ДОШКОЛЬНИКОВ В РАЗВИВАЮЩИХ ЦЕНТРАХ." *Interpretation and researches* 1.1 (2023).